



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

**Maktabgacha va maktab ta’limi tizimi xodimlarini qayta tayyorlash
va ularning malakasini oshirish tashkilotlari ma’muriy-boshqaruv
va pedagog kadrlarining sifat tarkibini yaxshilash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–231-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman**:

1. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlari ma’muriy-boshqaruv va pedagog xodimlari (keyingi o‘rinlarda - baholanuvchilar deb yuritiladi) tarkibini qayta ko‘rib chiqish 1-ilovadagi reja-jadvalga muvofiq amalga oshirilsin.

2. Quyidagilar:

A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarining ma’muriy-boshqaruv va pedagog xodimlari tarkibini qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarining ma’muriy-boshqaruv va pedagog xodimlari tarkibini qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha komissiyalar tarkibi (keyingi o‘rinlarda baholash komissiyasi deb yuritiladi) tarkibi 3-ilovaga muvofiq;

A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarining ma’muriy-boshqaruv va pedagog xodimlari tarkibini qayta ko‘rib chiqish natijalari yuzasidan berilgan shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha apellyatsiya komissiyasi tarkibi 4-ilovaga tasdiqlansin.

3. Belgilansinki:

baholanuvchining faoliyati qoniqarsiz ekanligi to‘g‘risida berilgan baholash komissiyasining xulosasi xodimning malakasi yetarli emasligini tasdiqlovchi dalillardan biri hisoblanadi;

mazkur xulosa ish beruvchi tomonidan xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligida belgilangan tartibda bekor qilish uchun asos bo'ladi.

4. Baholash komissiyalari (U.Sharifxodjaev, F.Boqiyev, S.Radjabov):

baholash jarayonini o'tkazish sanasi va joyi to'g'risidagi ma'lumotlarni baholanuvchilarga baholash jarayoni o'tkazilishidan bir oy oldin yetkazish, shuningdek, maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining rasmiy veb-sayti orqali e'lon berish;

baholash jarayonini adolatli, xolisona va shaffof o'tkazilishini ta'minlash;

baholanuvchilarning o'z lavozimiga mos yoki mos emasligi to'g'risidagi xulosani ish beruvchiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur buyruq Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi bilan kelishilgan.

7. Ushbu buyruq imzolangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Maktabgacha va maktab
ta'limi vaziri**



X. Umarova

Toshkent sh.,
2024 yil 17- oktabr,
336 -son

Kelishildi:

**Kambag'allikni qisqartirish
va bandlik vaziri o'rinbosari**



R.Turdiboyeva

Toshkent sh.,
2024 yil 17- oktabr,

**O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika
kengashi raisi o'rinbosari**



Sh. Jalilov

Toshkent sh.,
2024 yil 17- oktabr,

A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarining ma'muriy-boshqaruv va pedagog xodimlarining maqsadida ularning bilim va ko'nikmalarini baholash jarayonini o'tkazish

JADVALI

| T/r | Hududlar nomi | O'tkazish joyi | O'tkazish sanasi |
|------------|-------------------------------|--|-------------------------|
| 1. | Toshkent shahar | A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti | 2024-yil 17-31-dekabr |
| | | Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti | 2024-yil 17-31-dekabr |
| 2. | Qoraqalpog'iston Respublikasi | Qoraqalpog'iston Respublikasi pedagogik mahorat markazi | 2024-yil 17-31-dekabr |
| 3. | Andijon viloyati | Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi | 2024-yil 17-31-dekabr |
| 4. | Buxoro viloyati | Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi | 2024-yil 17-31-dekabr |
| 5. | Jizzax viloyati | Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi | 2024-yil 17-31-dekabr |
| 6. | Qashqadaryo viloyati | Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi | 2024-yil 17-31-dekabr |
| 7. | Navoiy viloyati | Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi | 2024-yil 17-31-dekabr |
| 8. | Namangan viloyati | Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi | 2024-yil 17-31-dekabr |
| 9. | Samarqand viloyati | Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi | 2024-yil 17-31-dekabr |
| 10. | Surxondaryo viloyati | Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi | 2024-yil 17-31-dekabr |
| 11. | Sirdaryo viloyati | Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi | 2024-yil 17-31-dekabr |
| 12. | Toshkent viloyati | Toshkent viloyati pedagogik mahorat markazi | 2024-yil 17-31-dekabr |
| 13. | Farg'ona viloyati | Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi | 2024-yil 17-31-dekabr |
| 14. | Xorazm viloyati | Xorazm viloyati pedagogik mahorat markazi | 2024-yil 17-31-dekabr |

Izoh: Baholash jarayoni o'tkaziladigan joy va o'tkazish muddatiga komissiya tomonidan zaruriyatga ko'ra, ya'ni bayram kunlari munosabati bilan e'lon qilingan qo'shimcha dam olish kunlari va ko'chirilgan ish kunlari belgilanishi, baholamuvchilar bilan o'tkazilayotgan baholash jarayonidagi vaqt munosibligi hamda tashkiliy tayyorgarlik holatlari inobatga olinib, o'zgartirish kiritilishi mumkin.

**A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti,
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat
markazlarining ma’muriy-boshqaruv va pedagog xodimlari
tarkibini qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risida
NIZOM**

Mazkur nizom A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (keyingi o‘rinlarda – Institut), Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti (keyingi o‘rinlarda – Maktabgacha ta’lim instituti), Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlari (keyingi o‘rinlarda – Hududiy markazlar)ning ma’muriy-boshqaruv va pedagog xodimlari (keyingi o‘rinlarda – Baholanuvchilar) tarkibini qayta ko‘rib chiqish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Baholanuvchilar tarkibini qayta ko‘rib chiqish jarayoni oshkoralik, kengashib ish ko‘rish, xolislik, teng huquqlilik, shaffoflik tamoyillari asosida tashkil etiladi.

2. Baholanuvchilar baholashdan o‘tkazilishidan kamida ikki oy oldin ogohlantiriladi, shuningdek, baholash yuzasidan savolnoma bir oy oldin Vazirlikning rasmiy veb-sayti orqali e’lon qilinadi hamda tanishib chiqilishiga imkoniyat yaratiladi.

3. Institut, Maktabgacha ta’lim instituti va Hududiy markazlar baholanuvchilarning tarkibini qayta ko‘rib chiqish jarayonini tashkil etishga mas’ul hisoblanadi.

**2-bob. Baholanuvchilar tarkibini qayta ko‘rib chiqishning maqsadi
va vazifalari**

4. Baholanuvchilar tarkibini qayta ko‘rib chiqishdan maqsad Institut, Maktabgacha ta’lim instituti va Hududiy markazlarning ma’muriy-boshqaruv va pedagog kadrlarining sifat tarkibini yaxshilashdan iborat.

5. Baholanuvchilar tarkibini qayta ko‘rib chiqishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

ma’muriy-boshqaruv va pedagog xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini baholash;
ma’muriy-boshqaruv va pedagog xodimlar tarkibini qayta ko‘rib chiqish va ularni malakali kadrlar bilan to‘ldirish;

ma’muriy-boshqaruv va pedagog xodimlar mas’uliyati hamda faoliyati samaradorligini oshirish.

3-bob. Baholanuvchilarning sifat tarkibini qayta ko'rib chiqish jarayonini tashkil etish va o'tkazish

6. Baholanuvchilarning sifat tarkibini qayta ko'rib chiqish jarayoniga quyidagilar jalb etilmaydi:

homiladorlik va tug'ish ta'tilidagi ayollar hamda bola parvarishlash ta'tilidagi xodimlar;

bola parvarishlash ta'tilidan qaytganiga bir yil to'lmaganlar;

qonunchilik hujjatlariga binoan manfaatdor organlar tomonidan attestatsiyadan o'tkazilishi belgilangan lavozimlar (yuridik xizmat, axborot xizmati lavozimlari va boshqalar);

mehnatga layoqatsizlik davrida bo'lganlar;

lavozim majburiyatlari zimmasiga vaqtincha yuklatilgan xodimlar.

7. Baholanuvchilar baholash jarayoniga uzrli sababga (vaqtincha mehnatga qobiliyatsizligi, yaqin qarindoshining vafoti, vakolatli davlat organi yoki ta'lim tashkilotlari rahbarlarining ma'lumotnomasida ko'rsatilgan boshqa asoslarga) ko'ra kelmagan bo'lsa, ularni baholash boshqa muddatga ko'chiriladi.

Bunda, uzrli sababga ko'ra kelmagan baholanuvchilar uchun baholashni o'tkazish Institut, Maktabgacha ta'lim instituti va Hududiy markazlar tomonidan komissiya bilan kelishilgan holda tashkil etiladi.

8. Institut, Maktabgacha ta'lim instituti va Hududiy markazlarning inson resurlarini rivojlantirishga mas'ul xodimlari alohida hujjatlar jamlanmasini (portfolio) tayyorlaydi va komissiyaga taqdim qiladi.

Hujjatlar jamlanmasi (portfolio) baholanuvchining pasporti nusxasi, ma'lumoti va mutaxassisligi to'g'risidagi hujjati, ilmiy darajasi va ilmiy unvoni (agar bo'lsa) hamda malaka oshirganlik va qayta tayyorlashdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnoma (sertifikat) nusxalari, ma'lumotnoma (ob'ektivka), so'nggi uch yilda nashr etilgan ilmiy, o'quv-metodik ishlari, maqolalari ro'yxatidan tashkil topadi.

Hujjatlar jamlanmasida (portfolio) baholanuvchining egallab turgan lavozimi malaka talablariga mos emasligi yoki noto'g'ri ma'lumotlar va qalbaki hujjatlar aniqlangan taqdirda, baholanuvchi suhbat jarayonining har qanday bosqichidan chetlashtiriladi hamda baholash jarayonidan o'tmagan deb hisoblanadi.

9. Baholanuvchilar sifat tarkibini qayta ko'rib chiqish jarayoni suhbat asosida tashkil qilinadi:

Suhbat jarayonida baholanuvchilarning ta'lim sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni bilish darajasi, menejerlik qobiliyati, malaka tavsiflarida belgilangan lavozim majburiyatlariga va malaka tavsiflariga mosligi, dunyoqarashi va aqliy salohiyatini **5 ta savoldan** iborat bilet asosida baholanadi.

Savollarga berilgan javoblar mazkur Nizomning 1-ilovasida keltirilgan mezonlar asosida baholanadi. Har bir savolga berilgan javob uchun maksimal 20 ballgacha baholanadi.

Savollarga berilgan javoblarga aniqlik kiritish maqsadida ishtirokchiga qo'shimcha savollar berilishi mumkin.

Suhbat jarayonida baholanuvchilarga quyidagilar taqiqlanadi:

uyali telefon, boshqa aloqa va telekommunikatsiya vositalari, kitob hamda shpargalkalardan foydalanish;

boshqa baholanuvchilar bilan suhbatlashish;

baholanuvchilarga baholash natijasi e'lon qilinmaguncha komissiyasi raisining ruxsatisiz xonadan tashqariga chiqish.

Baholanuvchilarning mazkur qoidaga amal qilmasligi uni baholash jarayonida qatnashishdan chetlashtirish uchun asos bo'ladi. Ushbu holatda mas'ul kotib tomonidan mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shaklda dalolatnoma rasmiylashtiriladi va komissiya a'zolarining kamida uch nafari tomonidan imzolanadi.

Savollar aniq, lo'nda va tushunarli tarzda berilishi, "ha" yoki "yo'q" shaklidagi javoblar berilishini taqozo etmasligi lozim.

Suhbat uchun maksimal 100 ball beriladi.

10. Suhbatning baholash jarayonida komissiya a'zolari qo'ygan ballar komissiya kotibi tomonidan umumlashtiriladi va o'rtacha (o'rta arifmetik) qiymati hisoblanadi.

11. Suhbat natijasida 60 va undan yuqori ball natijaga erishgan baholanuvchi suhbatdan o'tgan deb hisoblanadi.

Suhbat yakuni bo'yicha komissiya qarori shu kunning o'zida baholanuvchiga e'lon qilinadi va imzo qo'ydirib tanishtiriladi.

Har bir komissiya a'zolari tomonidan mazkur Nizomning 3-ilovasida belgilangan shakldagi baholash varaqasiga ushbu nizomning 1 ilovasidagi me'yorlarga muvofiq ball qo'yib boriladi va imzolanadi.

12. Komissiya tomonidan baholash masofadan turib (onlayn shaklda) amalga oshirilishi mumkin.

13. Komissiyaning qarorlari uning majlisida komissiya a'zolarining yarmidan ko'pi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

14. Baholanuvchilar suhbat jarayonida uzrsiz sababga ko'ra ishtirok etmagan bo'lsa, shuningdek, baholanuvchi dalolatnoma asosida chetlashtirilgan bo'lsa, komissiya tomonidan unga nisbatan "suhbatdan o'tmadi" degan qaror chiqarilishi uchun asos bo'ladi.

15. Komissiyasining yakuniy qarori mazkur Nizomning 4-ilovasiga muvofiq shaklda, ushbu Nizomning 3-ilovasiga binoan baholash varaqalariga qo'yilgan ballarni o'rtacha (o'rta arifmetik) qiymatini hisobga olgan holda rasmiylashtiriladi hamda komissiya raisi, uning a'zolari va kotibi tomonidan imzolanadi. Qarorlarning asli Vazirlikda saqlanadi.

16. Komissiyaning "Suhbat jarayonidan o'tmadi" degan qarori asosida baholanuvchiga past lavozimdagi ma'lumoti va mutaxassisligiga mos bo'lgan bo'sh ish o'rni taklif etiladi, agar shunday ish o'rni mavjud bo'lmasa, u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi ularning ish beruvchilari tomonidan mehnat qonunchiligida belgilangan tartibda bekor qilinadi.

17. Suhbat jarayoni videotasvirga yozib olinadi. Video tasvir 6 oy muddatga qadar vazirlikning Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasida saqlanadi hamda Apellyatsiya komissiyasi va sud organlarining talabiga ko'ra taqdim etilishi mumkin.

4-bob. Suhbat jarayoni natijalari yuzasidan murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi

18. Suhbat jarayoni natijalari yuzasidan berilgan murojaatlarni ko‘rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi. Apellyatsiya komissiyasi 5 kishidan iborat tarkibda Vazirlik tomonidan tasdiqlanadi.

Apellyatsiya komissiyasiga boshqa tashkilotlardan mutaxassislar jalb etilishi mumkin. Apellyatsiya komissiyasi ishida a‘zolarining yarmidan ko‘pi ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi. Komissiya a‘zolari apellyatsiya komissiyasi tarkibiga kiritilmaydi.

Komissiya qaroridan norozi bo‘lgan baholanuvchi suhbat jarayoni natijalari e‘lon qilingan kundan boshlab uch kun mobaynida apellyatsiya komissiyasiga yozma yoki elektron ravishda murojaat qilishi mumkin.

Apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilgan baholanuvchilar ularning murojaati ko‘rib chiqilgan kundan boshlab uch kun ichida murojaati ko‘rib chiqilganligi to‘g‘risida xabardor qilinadi.

19. Apellyatsiya komissiyasi suhbat jarayonini o‘tkazish tartiblari buzilmaganligi to‘g‘risida yoki tartib buzilgan deb topilgan taqdirda, murojaat qilgan baholanuvchiga qo‘shimcha ball qo‘shishi mumkin.

Apellyatsiya komissiyasi tomonidan qo‘shimcha ball qo‘shilishi natijasida, komissiya qarori o‘zgartiriladi.

Suhbat jarayoni boshqatdan o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

20. Baholanuvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash jarayonidan o‘tkazish bilan bog‘liq mehnat nizolari amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

21. Komissiya yoki apellyatsiya komissiyasi qarori ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga shikoyat qilinishi mumkin.

22. Ushbu Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarining ma'muriy-boshqaruv va pedagog xodimlari tarkibini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi
nizomga
1-ILOVA

Baholanuvchilarning ta'lim sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni bilish darajasi, menejerlik qobiliyati, malaka tavsiflarida belgilangan lavozim majburiyatlariga va malaka tavsiflariga mosligi, dunyoqarashi va aqliy salohiyatini baholash me'yorlari

| T/r | Baholash me'zonlari | Me'yor |
|------------|---|---------------|
| 1. | Savolga to'liq va aniq javob berdi, faoliyat sohasi bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega, ulardan o'z kasb faoliyatida mustaqil foydalanishni biladi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila oladi | 17-20 |
| 2. | Savolga aniq, biroq to'liq javob bermadi, faoliyat sohasi bilan bog'liq bilimlarga ega, ulardan o'z kasb faoliyatida foydalanishni biladi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni tahlil qila oladi | 13-16 |
| 3. | Savolga to'liq javob bermadi, faoliyat sohasi bilan bog'liq bilimlarga yetarli darajada ega, ulardan o'z kasb faoliyatida foydalanishni biladi | 9-12 |
| 4. | Savolga noaniq javob berdi, faoliyat sohasi bilan bog'liq bilimlarga ega, ulardan o'z kasb faoliyatida foydalanishni bilmaydi | 5-8 |
| 5. | Savolga noaniq javob berdi, faoliyat sohasi bilan bog'liq bilimlarga yetarli darajada ega emas | 1-4 |
| 6. | Savollarga umuman javob bermadi | 0 |
| | Savollarga javoblarning baholari (ballari) | 0-20 |
| | Suhbatning umumiy bahosi | 0-100 |

A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarining ma'muriy-boshqaruv va pedagog xodimlari tarkibini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi
nizomga
2-ILOVA

**Suhbat jarayonidan chetlashtirish haqida
DALOLATNOMA**

Toshkent shahri

20__-yil «__» _____

Biz, quyida imzo chekuvchilar shuni tasdiqlaymizki, baholanuvchi
_____ quyidagi cabablarga ko'ra

(baholanuvchining F.I.Sh.)

baholash jarayonidan soat _____:_____ da chetlatildi:

uyali telefon, boshqa aloqa va telekommunikatsiya vositalari, kitob hamda shpargalkalardan foydalandi;

boshqa xodimlar bilan suhbatlashdi;

baholash jarayoni tugamasdan xonadan tashqariga chiqdi.

Xodim tomonidan baholash jarayonidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizamning 11-bandi talablari buzildi.

Komissiya a'zosi

(imzo)

(F.I.O.)

Komissiya a'zosi

(imzo)

(F.I.O.)

Komissiya a'zosi

(imzo)

(F.I.O.)

A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarining ma'muriy-boshqaruv va pedagog xodimlari tarkibini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi nizomga
3-ILOVA

(Respublika, viloyat, tuman, shahar nomi)

(tashkilot nomi)

BAHOLASH VARAQASI

| T/r | Baholanuvchilarning F.I.Sh. | 1-savol | 2-savol | 3-savol | 4-savol | 5-savol | Jami |
|-----|-----------------------------|---------|---------|---------|---------|---------|------|
| 1 | | | | | | | |
| 2 | | | | | | | |
| 3 | | | | | | | |
| 4 | | | | | | | |
| 5 | | | | | | | |

Komissiya a'zosi

A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarining ma'muriy-boshqaruv va pedagog xodimlari tarkibini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi nizomga
4-ILOVA

_____ komissiyasining _____ yil «___» _____ kuni bo'lib o'tgan yig'ilishining _____-son
(komissiya nomi yoziladi)

Q A R O R I

Raislik qiluvchi: _____ — komissiya raisi
Ishtirok etganlar: _____ — komissiya a'zosi
_____ — komissiya a'zosi
_____ — komissiya a'zosi
_____ — komissiya kotibi

| T/r | Tashkilot nomi | Baholanuvchining F.I.O. | Suhbat natijasida to'plangan ball | Komissiyaning qarori |
|-----|----------------|-------------------------|-----------------------------------|----------------------|
| 1 | | | | |

Komissiya raisi
A'zolar

Komissiya kotibi

Tanishdim _____
(F.I.Sh va imzo)

**A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarining ma'muriy-boshqaruv va pedagog xodimlarining bilim va ko'nikmalarini baholash bo'yicha
KOMISSIYA TARKIBI**

| 1-Ishchi guruh * | | | |
|-------------------------|-------------------|---|--|
| 1. | U.U.Sharifxodjaev | – | Vazirning birinchi o'rinbosari, ishchi guruh rahbari |
| 2. | I.I.Sharipov | – | Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i, a'zo |
| 3. | A.A.Baxramov | – | Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, a'zo |
| 4. | N.A.Boymurodov | – | Moliya-iqtisod departamenti Moliyaviy uslubiyot va respublika tashkilotlarini moliyalashtirish bo'limi bosh mutaxassisi a'zo |
| 5. | S.B.Shakirova | – | Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligining Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i, a'zo |
| 6. | Lavozimiga ko'ra | – | Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, viloyatlar boshqarma boshliqlarining birinchi o'rinbosarlari, a'zo |
| 7. | Lavozimiga ko'ra | – | Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining hududiy vakili |
| 8. | Lavozimiga ko'ra | – | O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasining hududiy vakili |
| 9. | U.Bozorov | – | Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi, ishchi guruh kotibi |
| 2-Ishchi guruh* | | | |
| 1. | S.B.Radjabov | – | Vazir o'rinbosari, ishchi guruh rahbari |
| 2. | E.E.Murodov | – | Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i, a'zo |
| 3. | X.X.Xusanov | – | Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i, a'zo |
| 4. | M.A.Yuldashev | – | Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i, a'zo |
| 5. | F.B.Nazarov | – | Moliya-iqtisod departamenti Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarini moliyalashtirish bo'limi bosh mutaxassisi a'zo |
| 6. | Lavozimiga ko'ra | – | Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, viloyatlar boshqarma boshliqlarining birinchi o'rinbosarlari, a'zo |
| 7. | Lavozimiga ko'ra | – | Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining hududiy vakili |
| 8. | Lavozimiga ko'ra | – | O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasining hududiy vakili |
| 9. | A.Juraev | – | A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti kadrlar bo'limi boshlig'i, ishchi guruh kotibi |

| 3-Ishchi guruh* | | | |
|------------------------|------------------|---|---|
| 1. | F.E.Boqiev | – | Vazir o‘rinbosari, ishchi guruh rahbari |
| 2. | O.O.Zokirov | – | Ta’lim sifatini baholash va monitoring qilish boshqarmasi boshlig‘i, a’zo |
| 3. | S.R.Qodirov | – | Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi bosh mutaxassisi, a’zo |
| 4. | T.Yu.Shermatov | – | Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligining Ta’lim sifatini baholash va monitoring qilish boshqarmasi boshlig‘i boshqarmasi boshlig‘i, a’zo |
| 5. | O.A.Ibrohimov | – | Yuridik boshqarmasi Bosh yuriskonsulti, a’zo |
| 6. | H.Elchiyev | – | Moliya-iqtisod departamenti Moliyaviy uslubiyot va respublika tashkilotlarini moliyalashtirish bo‘limi yetakchi mutaxassisi a’zo |
| 7. | Lavozimiga ko‘ra | – | Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar boshqarma boshliqlarining birinchi o‘rinbosarlari, a’zo |
| 8. | Lavozimiga ko‘ra | – | Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining hududiy vakili |
| 9. | Lavozimiga ko‘ra | – | O‘zbekiston ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasining hududiy vakili |
| 10. | M.Karimova | – | Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi, ishchi guruh kotibi |

Izoh:

1-Ishchi guruhga – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Navoiy, Samarqand viloyatlari Pedagogik mahorat markazlari biriktiriladi.

2-Ishchi guruhga – A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti hamda Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax viloyatlari Pedagogik mahorat markazlari biriktiriladi.

3-Ishchi guruhga – Sirdaryo, Toshkent, Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatlari Pedagogik mahorat markazlari biriktiriladi.

Ishchi guruh a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan shaxslar yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

Komissiya a‘zolari tarkibiga baholanuvchilarning egallab turgan lavozimi yo‘nalishlari bo‘yicha qo‘shimcha xodimlar ovoz berish huquqi bilan jalb etilishi mumkin.

Baholash komissiyasining qarorlari uning majlisida komissiya a‘zolarining yarmidan ko‘pi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

Komissiya kotibi ovoz berish huquqiga ega emas.

A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarining ma'muriy-boshqaruv va pedagog xodimlarining bilim va ko'nikmalarini baholash natijalari yuzasidan berilgan murojaatlarni ko'rib chiqish bo'yicha

APELLYATSIYA KOMISSIYASI TARKIBI

| | | | |
|-----------------|------------------|---|---|
| 1. | F.I.Sh. | - | Maktabgacha va maktab ta'limi vaziriligi Yuridik boshqarmasi boshlig'i, Apellyatsiya komissiyasi raisi |
| A'zolar: | | | |
| 2. | A.Yuldashev | - | Maktabgacha va maktab ta'limi vaziriligi Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi boshlig'i |
| 3. | I.Eshqobilov | - | Maktabgacha va maktab ta'limi vaziriligi Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari |
| 4. | M.A'zamov | | Maktabgacha va maktab ta'limi vaziriligi Yuridik boshqarmasi bosh yuriskonsult |
| 5. | Lavozimiga ko'ra | - | Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining vakili |
| 6. | Lavozimiga ko'ra | - | O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi vakili |

Izoh: Apellyatsiya komissiyasi a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda komissiya tarkibiga ularning lavozimlariga tayinlangan shaxslar yoxud zimmasiga tegishli funksiyalar yuklangan shaxslar kiritiladi.